



CRAFTSMANSHIP AND TRADE IN THE CITY OF JIZZAKH ON THE EVE OF THE RUSSIAN INVASION

Ahrorqul Hasanovich Pardayev

Associate Professor

Head of the Department of General History, JDPU

Science ID: FJZ-0826-0002

Jizzah, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Jizzakh, handicraft, trade, pottery, blacksmithing, weaving, leatherworking, jewelry-making, bazaar, Great Silk Road.

Received: 04.08.26

Accepted: 05.08.26

Published: 06.08.26

Abstract: The article examines the issues of handicrafts and trade in the city of Jizzakh on the eve of its conquest by the Russian Empire. Owing to its location at an important crossroads of the Great Silk Road, linking the Samarkand–Tashkent and Fergana directions, in the mid-19th century Jizzakh developed such craft industries as pottery, blacksmithing, weaving, leatherworking, jewelry-making, soap-making, chest-making, and sericulture, along with domestic and external trade. Based on an analysis of archival documents, oral history data, and the scholarly works of researchers, the article highlights the branches of urban handicraft, their products, production technology, and interregional trade relations.

RUS ISTILOSII ARAFASIDA JIZZAX SHAHRIDA HUNARMANDCHILIK VA SAVDO

Ahrorqul Hasanovich Pardayev

Dotsent

JDPU, "Umumiy tarix" kafedrasi mudiri

Ilmiy identifikatsiya raqami: FJZ-0826-0002

Jizzah, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit hunarmandchilik, temirchilik, zargarlik, bozor, Buyuk Ipak yo'li.	so'zlar: savdo, to'qimachilik, ko'nchilik,	Jizzax, kulolchilik, ko'nchilik,	Annotatsiya: Maqolada Rossiya imperiyasi istilosi arafasida Jizzax shahrida hunarmandchilik va savdo-sotiq masalalari yoritilgan. XIX asrning o'rtalarida Jizzax shahri Buyuk Ipak yo'lining Samarqand–Toshkent va Farg'ona yo'nalishlarini bog'lovchi muhim chorrahada joylashgani bois, unda kulolchilik,
--	---	---	--

temirchilik, to'qimachilik, ko'nchilik, zargarlik, sovungarlik, sandiqchilik, ipakchilik kabi hunarmandchilik tarmoqlari hamda ichki va tashqi savdo faoliyati rivojlangan. Arxiv hujjatlari, og'zaki tarix ma'lumotlari va tadqiqotchilarning ilmiy asarlari tahlili asosida shahar hunarmandchiligining tarmoqlari, ularning mahsulotlari, ishlab chiqarish texnologiyasi hamda mintaqalararo savdo aloqalari yoritib berilgan.

РЕМЕСЛЕННОСТЬ И ТОРГОВЛЯ В ГОРОДЕ ДЖИЗАК НАКАНУНЕ РОССИЙСКОГО ВТОРЖЕНИЯ

Ахроркул Хасанович Пардаев

Доцент

Заведующий кафедрой «Всеобщая история» Джизакского государственного педагогического университета (JDPU)

Научный идентификационный номер: FJZ-0826-0002

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джизак, ремесло, торговля, гончарное дело, кузнечное дело, ткачество, кожевенное дело, ювелирное дело, базар, Великий шёлковый путь.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы ремесла и торговли в городе Джизак накануне завоевания Российской империей. Благодаря расположению на важном перекрёстке Великого шёлкового пути, соединяющем направления Самарканд–Ташкент и Фергана, в середине XIX века в Джизаке получили развитие такие отрасли ремесла, как гончарное, кузнечное, ткацкое, кожевенное, ювелирное, мыловаренное, сундучное и шелководческое дело, а также внутренняя и внешняя торговля. На основе анализа архивных документов, материалов устной истории и научных трудов исследователей освещены отрасли городского ремесла, их продукция, технология производства и межрегиональные торговые связи.

Kirish. XIX asrning o'rtalarida Jizzax shahri yirik harbiy-strategik va iqtisodiy markazlaridan biri sifatida ajralib turgan. Shahar Buyuk Ipak yo'lining Samarqand–Toshkent va Farg'ona yo'nalishlarini bog'lovchi muhim chorrahada joylashgani bois hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratgan. Rossiya imperiyasi istilosi arafasida Jizzaxda temirchilik, misgarlik, kulolchilik, to'qimachilik, ko'nchilik hamda zargarlik kabi hunarmandchilik tarmoqlari shahar iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlarini tashkil etgan.

Mahalliy ustalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki bozor ehtiyojini qondirish bilan birga Samarqand, Toshkent, Xo'jand, O'ratepa va Buxoro bozorlariga ham chiqarilgan. Shaharning muntazam faoliyat yuritgan bozorlari va karvon savdosi uning mintaqalararo iqtisodiy aloqalardagi o'rnini mustahkamlagan.

Bu davrda Jizzax shahri vohaning ma'muriy, savdo-hunarmandchilik markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Kundalik turmush, xo'jalikda ish yuritish uchun kerak bo'ladigan narsalarning aksariyati jizzaxlik mahalliy usta-hunarmandlar tomonidan tayyorlangan. Jizzaxda kulollik, temirchilik, sovungarlik, zargarlik, misgarlik, to'quvchilik, ko'nychilik, gilamdo'zlik kabi hunarmandchilik sohalari bilan shug'ullangan. Hatto, ushbu hunarmandchilik sohalari bilan atalgan mahalla va guzarlarning nomlari hozirgacha saqlanib qolgan. Axborotchilarimizning bergan ma'lumotlariga ko'ra, hunarmandlarning ustaxonalari, do'kon va rastalari 1866-yil, ruslar istilosiga qadar O'rdaning ichkarisida janubiy mudofaa devorlar yaqinida bo'lgan. O'rda zabt etilib, vayron qilingandan so'ng tashqariga ko'chgan va taxminan hozirgi «O'zbekiston» mehmonxonasi hududida joylashgan.

Kulollik. Kulollik Jizzaxda eng qadimgi hunarmandchilik turlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy kulollarning mil. avv. III–II asrlarga oid eng qadimgi xumdonlarining qoldiqlari Qaliyatepa shahar xarobalarida qayd etilgan va o'rganilgan. XVI–XIX asrlarga oid kulollik idishlari namunalari O'rdadagi stratigrafik qazishlar paytida topib, tahlil qilingan va ularning mahalliy xususiyatlari belgilab chiqilgan [1].

O'rdaning janub devorlari tomonida o'nlab xumdonlar mavjud bo'lgan. Kulollar oddiy oyoq charxida soz tuproq loyidan yasalgan sirlangan, guldor va sirlanmagan — kosa, tovoq, piyola, ko'za, xum, xumcha, xurmacha, tuvak, qozon ... kabi idishlar, bolalar o'yinchoqlari bu xumdonlarda pishirilgan. Idishlarning sirti va ichki tomonlari aksariyat hollarda nim yashil, yashil, qizg'ish-malla, havo rangli sirlar bilan qoplangan. Turli o'simlik, gullar tasviri tushirilib bezalgan. O'ratepa kulollari haqida ma'lumot bergan Yu. Yujakovning ta'kidlashicha, «... bunday chiroyli, guldor, idish-tovoqlar Xo'jand bilan Jizzaxda ham tayyorlangan» [2].

Ushbu xumdonlardan shubhasiz g'isht ham pishirilgan. 1902-yilda jizzaxlik Nuriddin hoji mablag'iga qurib bitkazilgan madrasaning to'rt burchak shaklidagi yupqa g'ishtlari aynan mazkur xumdonlarda yantoq yoqib pishirilgan. G'isht pishirish uchun cho'ldan tuyalarda, ot-aravalarda katta miqdorda yantoq g'aramlari olib kelingan. Axborotchi Shahri ona Ortiqovanning (1909–2002-y.) aytishlaricha, oddiy xalq bu xumdonlardan o'ziga xos tabobat uchun ham foydalangan. Xususan, bod, oyoq og'rig'i, surunkali shamollash, zotiljam bilan og'rgan odamlar xumdonlarda idish yoki g'ishtlar pishirilib olingandan so'ng, ma'lum muddat o'tgach, xumdonga tushib o'tirishgan va undagi quruq issiqdan terlab, shifo topishgan.

Temirchilik. Jizzax vohasida hunarmandchilikning ushbu turi qadimdan shakllangan va rivojlangan. Zomin tumanining tog‘li hududidagi Miq (Mug‘) qal‘asida milodiy IX–X asrlarga mansub temirchilik ustaxonasining qoldiqlari ochib o‘rganilgan. Temir rudasi shu yerdagi tog‘konidan qazib olingan va Miq qal‘asida eritilgan [3]. Shuningdek, Chingizxon istilosi davrida Jizzax yaqinidagi «Xonbandi» mavzeyi atrofidan temir rudasi qazib olinib eritilgani va undan kamon o‘qlari yasalgani haqida fikrlar ham mavjud. Demak, Jizzaxda qadimdan metall eritish va unga ishlov berib buyumlar yasash an‘anaviy tarzda rivoj topib kelgan. Biroq XIX asrda jizzaxlik temirchilarning ustaxonalari aynan qayerda, qanday ko‘lamda bo‘lganligi haqida aniq ma‘lumotlar yo‘q. Lekin, «Xotira» kompleksi qurilishi paytida O‘rdaning janubiy qismidan ko‘plab chala eritilgan ruda qoldiqlari qayd etilgan. Shuningdek, yozuvchi N. Safarov o‘z esdaliklarida tog‘asining xarobaga aylanib, tomi bosib qolgan temirchilik ustaxonasini shu hududdan ochib tozalaganlari, uni qayta tiklab ish boshlaganlari haqida yozadi [4]. Shunga qaraganda, temir eritish va temirchilik ustaxonalari ham shu mavzeda, kulollik ustaxonalari yonida joylashgan bo‘lgan.

Buxoro va Samarqand shaharlarining XVI asrdagi hunarmandchiligini tadqiq etgan R.G. Mukminovanning e‘tirof etishicha, bu davrda Buxoro xonligida metall eritish va undan buyum va asboblarni yasash keng yo‘lga qo‘yilgan. Mis, jez, cho‘yan, temir va po‘latdan yasalgan buyumlar avvalo sifati, ko‘rinishi va, albatta, vazniga qarab baholangan [5]. Jizzax viloyat o‘lkashunoslik muzeyi fondida asosan voha aholisidan yig‘ilgan va qisman arxeologik qazishlar paytida O‘rda va Qaliyatepadan topilgan metallardan yasalgan turli idishlar, mehnat qurollari saqlanmoqda. XV–XVII asrlarga oid metall buyumlardan yog‘och eshik zulfi, temir taqa, o‘q-yoy va nayza uchlari, XVIII–XIX asrlarga taalluqli mis barkash (tovoq), mis tog‘ora, mis jom, mis qumg‘on, oftoba, cho‘yan manqal, temirdan yasalgan bolta, ketmon, o‘roq, omoch tishi, poy tesha saqlanmoqda. Tesha va poy teshaning asosi temirdan, tig‘i esa po‘latdan yasalgan. Shuningdek, o‘choq-boshi anjomlaridan qozon, kapkir, cho‘mich, to‘y-ma‘raka oshpazlarining maxsus obi-gardonlari, sanchqilari, pichoqlaridan namunalar mavjud.

Jizzaxlik mahallasi oqsoqollarining aytishlariga qaraganda, Jizzaxda temirchilik bilan asosan ularning ota-bobolari shug‘ullanishgan. Jizzaxlik temirchilar yasagan buyumlar O‘ratepa, Xo‘jand, Samarqand bozorlarida ham sotilgan.

To‘qimachilik. Bu soha bilan Jizzaxda shahar va qishloq aholisi birdek shug‘ullangan. To‘qimachilikda avvalo bo‘z to‘qilgan. Shoyi, chit gazlamasi to‘qilgani haqida ma‘lumot yo‘q. Jundan gilam, shol, olacha to‘qish, kigiz, namat bosish, ichki tomoni oshlangan qo‘y, echki terisidan po‘stak tayyorlash keng yo‘lga qo‘yilgan. Jizzaxda tayyorlangan gilam, shol, kigiz,

otlarning ustiga yopiladigan julxurs O'ratepa, Xo'jand, Qo'qon, Samarqand bozorlarida yaxshi bahoga sotilgan.

Sovungarlik. Jizzaxda sovungarlik bilan shug'ullanish, fikrimizcha, XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan. Jizzaxlik mahallasi ajdodlari ushbu kasb bilan shug'ullanishgan va keyinchalik alohida bitta guzar bo'lib ajralib chiqishgan. Samarqand viloyat arxividan olingan ma'lumotga qaraganda, XIX asrning ikkinchi yarmida Jizzax shahrida sovungarlik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lgan va faqat sovungarlarning savdo-manufaktura uyushmasi mavjud bo'lgan. Jizzax vohasida chorva mollarining ko'pligi, mahalliy va qo'shni vohalar bozoridan olib kelingan xomashyoning yetarliligi tufayli ushbu soha rivojlangan.

Sovun tayyorlash uchun xomashyo sifatida chorva mollarining ichki a'zolaridagi jamiki yog'lari (lahat go'shtlar ham) to'plangan. 100 litr hajmli doshqozonga 80 kg miqdorida to'plangan chorva mollarining yog'lari solinib, unga 6–7 litr suv ham qo'shiladi. Qozondagi yog'lar o'rtacha haroratli olovda 3–4 soat qaynatiladi. Xuddi sumalakni kapkirda aylantirganday, yog'larni ham xuddi shunday aylantirib turiladi. Yog'lar butkul eritilib, quyuq holatga keltirilgan. Yog'lar erib quyuqlashgach, qozondagi yog'ga 2 kilogramm miqdorda ohak ham qo'shib yuboriladi. Ohak yaxshi erimagan yog'larni va yog'larga qo'shib qozonga solib yuborilgan yog'li go'shtlarni butkul eritib, kir sovunning sifatli tayyorlanishini ta'minlaydi. Ohak sovunning yaxshi ko'pirishiga ham xizmat qilgan. Yog'lar yanada qorishib, quyuqlashgach, imkon qadar g'o'zapoya, tuya qorin va qirqbo'g'in o'simliklarning yongan kulidan ishqor sifatida foydalanib, 80 kg yog' eritmasiga 1 yoki 1,5 kg kul qo'shiladi. Hozirda zamonaviy sanoatda esa har xil kimyoviy kislotalar va ishqorlardan foydalanilgan.

Qo'shilgan ishqorlar aralashib, yog'ga singib ketgach, 300 gramm tuz va 5 dona xom tuxum chaqilib, qo'shib yuborilgan. Qo'shilgan ishqorlar reaksiyaga kirishib, qorishib ketishi uchun 30 daqiqadan 1 soatga qadar o'rtacha haroratdagi olovda maxsus cho'mich bilan aralashtirib turilgan. Ota-bobolarimiz, qo'lbola sovunni sifatli chiqishi uchun yana boshqa har xil maxsus ishqorli kukunlardan ham qo'shishgan. Bu kabi maxsus ishqorlarning tayyorlanish tarkibi kasb siri hisoblangan. Sifatli tayyor mahsulotlar uyda ulgurji narxlarda hamda Eski shahar bozori savdo rastalarida sotilgan. Eski shahar bozorini hamda boshqa tumanlardagi bozorlarni sovun mahsulotlari bilan aynan Jizzaxlik va Sovungarlik mahallalari sovungarlari ta'minlab turishgan [6].

Sandikchilik. Jizzax o'zining sandiqsoz va quti yasaydigan ustalariga ega bo'lgan. Sandiqsozlik va qutisozlik bilan asosan O'ratepalik va Toshkentlik mahallalari aholisi shug'ullangan. Sandiq va qutilar asosan yengil daraxt yog'ochlaridan, masalan, tol yog'ochidan yasalgan. Sandiq, qutilarning old qismi turli ranglarga bo'yalgan, turli geometrik va o'simlik

naqshlarini ifoda etgan yupqa tunuka bilan qoplangan, qolgan sirtqi tomonlarining taxtalari havorang bo'yoq bilan bo'yalgan. Qopqoqqa oshiq-moshiq, zulfin o'rnatilgan. Sandiq va qutilardan nafaqat uy-jihози, balki xonalarga alohida ko'rk bag'ishlovchi vosita sifatida foydalanilgan.

Ko'nychilik. Jizzaxda nomi saqlanib qolgan guzarlaridan biri «Ko'nychilik»dir. Bu guzar nomi hozirda O'rdaning janubi-sharq tomonidagi mavzega nisbatan aytib kelinadi. Ma'lumki, Jizzax shahri va uning tegrasidagi aholi makonlarida ko'nychilik hunarmandchiligining xomashyosi — chorva mollari terisi ko'p yetishtirilgan. O'troq, yarim o'troq va ko'chmanchi aholi xuddi O'ratepada bo'lgani kabi Jizzaxda ham o'zlaridagi mavjud xom terilarni ko'tara sotishgan va ehtiyojlariga talab qilingan narsalarni bozordan sotib olishgan. Ta'kidlash lozimki, Jizzaxda etikdo'zlik nomi bilan ataladigan mahalla, guzar va hattoki ma'lum bir joy ham mavjud emas. Axborotchilarimizning aytishlaricha, buning sababi shundan iboratki, ko'nychilarning bir qismi o'zlari tayyorlagan charm mahsulotlaridan o'zlari oyoq kiyimlari tayyorlashgan. Tayyorlagan oyoq kiyimlari sirasiga — etik, mahsi, kalish, mukki kirgan. «Ortiqcha charm savdo tovari sifatida O'ratepaga, undan Troitsk va Petropavlovsk orqali Rossiyaga chiqarilgan» [7].

Zargarlik. Yuqorida qayd etilgan manbada yozilishicha, XIX asrning ikkinchi yarmida O'ratepada uchta zargar usta va uchta zargar shogird faoliyat ko'rsatgan. Ular asosan xotin-qizlarning — isirg'a, bilakuzuk, uzuk, tillaqosh, zebigardon kabi taqinchoqlarini yasashgan. Bu narsalar o'zining yasash usuli nozikligi, qimmatbaholigi bilan boshqa hunarmandchilik namunalaridan ajralib turgan. Aksariyat hollarda, zargarlik buyumlariga san'at asari sifatida baho berilgan. 1860–1861-yillarga taalluqli rasmiy hujjatlarda o'ratepalik Nurmuhammad zargar haqida ma'lumotlar uchraydi. U XIX asrning birinchi yarmida faoliyat ko'rsatgan taniqli zargar sifatida qayd qilinadi.

Jizzaxda ham zargarlik bilan, aytishlaricha, faqat o'ratepaliklar shug'ullanishgan. Zargarlik guzari ham O'ratepalik mahallasi hududida joylashgan. Jizzaxda qachon, nechta zargar bo'lgani haqida aniq fikr va ma'lumot yo'q. O'ratepadan nisbat olib aytish mumkinki, XIX asrning birinchi yarmida Jizzaxda ham zargar ko'p bo'lmagan, taxminan 2–3 ta zargar usta, 2–3 ta shogirdi bilan faoliyat ko'rsatgan.

O'ratepa bilan aloqa bu soha bo'yicha mustahkam bo'lgan. O'rta Osiyolik ayollar taqadigan taqinchoqlarning barcha turi jizzaxlik ayollarda mavjud bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, ularning barchasi Jizzaxda yasalgan degan fikrdan yiroqmiz.

Ipakchilik. O'rta Osiyoning eng qadimgi va qadrli hunarmandchilik sohalaridan biri bo'lgan ipakchilik bilan so'nggi ma'lumotlarga qaraganda, ajdodlarimiz deyarli ikki ming yildan

buyon shug‘ullanib kelganlar [8]. Jizzaxda ushbu soha bilan biz tadqiq etayotgan davrda mashg‘ul bo‘lingani haqida yozma manbalarda ma‘lumot yo‘q. Axborotchi Hamrobuvi Ortiqovanning (1896–1992) bizga bergan xabarlariga ko‘ra, ipak qurti boqish bilan ularning oilalari azaldan shug‘ullanishgan. Ipak qurtining urug‘ini ochirish o‘ziga xos usulda amalga oshirilgan. Uni maxsus xaltachada qo‘ltiq ostida olib yurishgan va ma‘lum muddatdan so‘ng pilla qurti ochib chiqqan. Yilda ikki marta ipak qurti boqilgan: erta ko‘klamda va kuzda. Jizzax shahri va uning atrofida hanuzgacha saqlanib qolgan, 100 yildan avval ekilgan tutlar ham bu yerda pillachilik bilan shug‘ullanilganini bildiradi. Jizzax pillakorlari yetishtirgan xomashyo O‘ratepa va Samarqand bozorida sotilgan.

Qassoblik. O‘rdaning janubi-sharq tomonida ushbu nom bilan ataluvchi guzar mavjud. Qassoblik guzari aholisi asosan O‘ratepalik mahallasidan ajralib chiqqan. Axborotchilarimizning aytishlaricha, Jizzaxda qassoblik bilan asosan O‘ratepalik va Saroylik aholisi shug‘ullangan. Ularga qo‘y va molni Qipchoq mahallasi aholisi Zarafshon vohasi hamda Mirzacho‘l dashtlaridagi yarim o‘troq va ko‘chmanchi aholidan ko‘tara savdo qilib olib kelib yetkazib berishgan.

Tuz yetishtirish. Jizzaxdan 50 km shimoli-g‘arbda joylashgan Tuzkondan osh tuzi qazib olingan. Jizzaxlik tuz savdosi bilan shug‘ullanuvchi odamlar Samarqand, O‘ratepa, Zomin, Xo‘jand singari shaharlarga tuz olib borib sotishgan [7].

Jizzax shahri aholisining hayot tarzi bozor bilan uzviy bog‘liq holda kechgan. Aholining hunarmandchilik bilan mashg‘ul qismi o‘zlari yetishtirgan mahsulotni asosan o‘zlari sotishgan. Savdogarlar esa qo‘shni shahar va vohalar bilan o‘zaro «oldi-berdi» savdosini amalga oshirishgan. Boy savdogarlar faqat ko‘tara savdo bilan shug‘ullanishgan. Ya‘ni, ularning savdo karvonlari Jizzax karvonsaroyining o‘zidayoq olib-sotar, «chakanafurush», «attor»larga o‘z mollarini sotishgan, ba‘zi hollarda qarzga ham berishgan. Jizzax bozorida gazlama bilan savdo qiluvchi — bazz ozlar, oyoq kiyimi bilan savdo qiluvchi — vofurushlar, un bilan savdo qiluvchi — alloflar, gilamdo‘zlar, do‘ppido‘zlar, chopondo‘zlar va boshqalarning alohida rastalari mavjud bo‘lgan.

Tayyor, umumiy oziq-ovqat mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanish ham keng yo‘lga qo‘yilgan. Bozor kunlari Jizzax bozori juda gavjum bo‘lgan. Chunki, yon-atrofdagi qishloqlar va cho‘l-dashtdagi ko‘chmanchi aholisi uchun Jizzax bozori eng yaqin va eng qulay xarid makoni hisoblangan. Shu sababli, umumiy ovqatlanish joylari, choyxonalar, takiyaxonalar va karvonsaroylar Jizzaxda, asosan bozor va bozor atrofida ko‘p bo‘lgan.

Jizzax nonvoylari tomonidan obi non, chapchak non, patir non tayyorlangan va sotuvga chiqarilgan.

N. Safarovning yozishicha, «Qalandarxona» choyxonasi yaqinida yashovchi Qurbonboy somsapaz har kuni peshinngacha 2 tog'ora, peshindan keyin 2 tog'ora somsa yopib choyxonaga qo'yib ketgan. O'zi o'tirib sotmagan. Somsaxo'r mijozlar somsadan keraklicha olib, pulini maxsus qo'yilgan sopol kosaga tashlab ketishgan [4]. Palov, sho'rva, kabob, manti, no'xat sho'rva kabi taomlar ham choyxonalarda tayyorlangan. Go'ja oshi, qatiqli osh (oq osh ham deyiladi), shirkadi kabi taomlar Jizzax bozorining turli joylarida asosan kambag'al, beva-bechoralarga sotilgan.

Shuningdek, novvot, nisholda, holva, kallaqand, «qog'ozpech» (konfet), shinni kabi shirinliklar sotilgan. Nisholda va shinnidan tashqari shirinliklar Jizzaxga asosan Samarqanddan keltirib sotilgan.

Ho'l mevalar, qovun-tarvuz, handalak Jizzax bozorida serob bo'lgan. Bularning barchasi mahalliy ziroatkorlar tomonidan yetkazilgan. Quritilgan mevalardan mayiz, o'rik qoqi, turshak, olma qoqi, jiyda asosan qish oylarida iste'mol qilish uchun xarid qilingan. Forishning Bog'don qishlog'i soyaki mayizi mashhur bo'lgan. Bu mayizni Samarqand, Buxoro, O'ratepa, Xo'jand va Qo'qongacha olib borib sotishgan. O'rik qoqini esa Jizzaxga O'ratepa va Xo'jand tomonlardan olib kelib sotishgan.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, Jizzaxda azaldan davom etib kelayotgan shahar hayoti XIX asrning birinchi yarmida ham davom etgan va rivojlanishning o'ziga xos bosqichlaridan o'tgan. O'rdaning shahar hayoti O'rta Osiyoning boshqa shaharlari kabi an'anaviy tusni olgan bo'lsa-da, farq qiladigan tomonlari ham mavjud bo'lgan. Masalan, shahar aholisi hisoblangan, O'rdada mahallalari mavjud bo'lgan — Mo'likanlik, Oqqo'rg'onlik, Tog'chilik, Ravotlik kabi mahallalar aholisi asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan va ekin mavsumi — yoz oylarida ular dala hovliga ko'chib ketishgan. Ushbu mahallalar oqsoqollarining ma'lumot berishlaricha, har bir mahalladagi o'ziga to'q, boy dehqonlarning shahardan tashqarida, ekin maydonlari yaqinida rabotlari bo'lgan. Tosh-rabot, Oq-rabot, Ko'k-rabot, Qizil-rabot, Xay-rabot nomli mavzelar hanuzgacha Jizzax shahri atrofida saqlanib qolgan. Shuningdek, bu rabotlar egasining nomi bilan ham atalgan. Bu rabotlarning atrofi 5–7 paxsa devor (3,5–5,0 m) bilan aylantirib o'rab olingan va uning ichida 4–5 tagacha oila yashagan. Qaliya Mo'likanlik mahallasiga tegishli shunday rabotlardan biri (Jizzax автостанцияsidan 1 km shimolda) Tosh-rabot 1960-yillarda buzib yuborilgan. Shahar aholisining qolgan qismi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Hunarmandchilikning deyarli barcha turlari Jizzaxda mavjud bo'lgan va Jizzax hunarmandchilik mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пардаев М., Пардаев А. Жиззах Ўрдаси //Қадимий Қарши - Ўрта Осиё шаҳарсозлиги ва маданияти тарихи. Халқаро илмий анжуман материаллари. Қарши, «Насаф», 1999, 134-137 б.
2. Южаков Ю. Ура-Тюбе и его округи. -«Отечественные записки», 1867, № 7, 591 с.
3. Сверчков Л.М. Поселение Мык - источник по истории средневековой Уструшаны. Автореф. дис.канд.ист.наук. Самарканд, 1991, с. 10-12.
4. Сафаров Н. Наврўз. Т: Фафур Фулом нашриёти. 1977, с. 210, 543 б.
5. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. Т: «Фан», 1976, с. 104-105.
6. Og'zaki tarix. Jizzax shahri Sovungarlik mahallasi fuqarosi Sobirjon Yunusov sovun tayyorlash texnologiyasi haqida ma'lumot. Sh.Rashidov tumani. Sovungarlik mahallasi. 15.05.2025.
7. Мухтаров А. История Ура-Тюбе (конец XV - начало XX вв.) М.: 1998. - с. 148, 153.
8. Ртвеладзе Э.В. Великий Шёлковый путь. Т., «Ўзбекистон энциклопедияси», 1994. 15-18 б.